

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI**

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**JIZZAX VILOYATINING
IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATI
AXBOROTNOMASI**

**2025-YIL
YANVAR-IYUN**

Jizzax – 2025-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2025-yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-ko‘n sanoati va ochiq ko‘narni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B, C, D, E, F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (A seksiyasi “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l	–	litr
foiz	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd	–	milliard	m.	–	iyuna
mln	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln AQSH doll.	–	million AQSH dollari	Ga	–	gektar
kv	–	kvadrat	t	–	tonna
km	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–13
II. SANOAT	14–27
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	28–47
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	48–62
V. XIZMATLAR	63–80
VI. TRANSPORT	81–85
VII. ISTE'MOL BOZORI	86–96
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	97–114
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	115–119
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	120–131
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	132–144
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	145–156
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	157–164

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
(2025- yil yanvar-iyun)

	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2024-yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
	Yalpi hududiy mahsulot	21 725,2	107,9
	Sanoat mahsuloti	15 886,9	112,1
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	11 757,6	103,6
	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	11 670,9	105,5
	Qurilish ishlari	3 975,1	119,7
	Yuk aylanmasi (mln tn–km)	569,7	103,5
	Yo'lovchi aylanmasi (mln yo'lovchi.–km)	1 245,8	101,3
	Chakana savdo tovar aylanmasi	5 297,1	108,3
	Xizmatlar, jami	10 776,1	114,0
	Tashqi savdo aylanmasi, (mln AQSH doll.)	767,4	75,9
	Eksport	77,3	78,7
	Import	690,1	75,5
	Saldo (+,-)	-612,8	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT




2023-2025- yillarning yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) (joriy narxlarda, mlrd so‘m)

Jizzax viloyatida YaHM hajmi 2025 yilning yanvar-iyun oylarida 21 725,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 7,9 % ga o‘tdi. YaHMning tarmoqlar tarkibida o‘shish sur‘atlari: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,5 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 31,4 %), sanoatda 112,1 % (20,6 %), qurilishda 119,7 % (7,8 %) va xizmatlar sohasida 107,1 % (40,2 %)ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM 14 065,1 ming so‘mni tashkil etdi va 5,8 % ga o‘tdi.



YaHMning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


Ko'rsatkichlar nomi	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YaHM	18 369,5	21 725,2	107,9
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 880,0	21 299,8	107,8
 Mahsulotlarga sof soliqlar	489,5	425,4	111,1
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 880,0	21 299,8	107,8
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 741,3	6 684,9	103,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 837,4	6 047,4	114,2
 sanoat	3 495,6	4 390,9	112,1
 qurilish	1 341,8	1 656,5	119,7
Xizmatlar	7 301,3	8 567,5	107,1
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 375,5	2 791,7	108,8
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	769,5	1 020,9	118,6
 boshqa xizmat tarmoqlari	4 156,3	4 754,9	103,9

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (joriy narxlarda, ming so‘m)

Quyida keltirilgan infografikada aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 14 065,1 ming so‘mni tashkil etganligini va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,8 % ga o‘sganligini ko‘rish mumkin.



2023-2025- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning hajmi va o‘shish sur‘atlari diagrammasi





2024-2025- yillarning yanvar-iyun oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	2024- yil	2025- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>Shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	98,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,1	31,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,1	28,4
	sanoat	19,6	20,6
	qurilish	7,5	7,8
	Xizmatlar	40,8	40,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,3	13,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,3	4,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,2	22,3

2025- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,0 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHM tarkibidagi ulushi 31,4 % ni, sanoat tarmog‘i 20,6 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 40,2 % ni tashkil qildi.






Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan % da)



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar

2024-2025- yillarning yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




■ 2024-yil
■ 2025-yil


2025- yilning yanvar-iyun oylarida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YaHM-tarkibidagi ulushi – 31,4 %), sanoatda – 112,1 % (20,6 %), qurilishda – 119,7 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (40,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,8 % (13,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,6 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,9 % (22,3 %) ni tashkil qildi.





2023-2025- yillarning yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,6% ni tashkil etdi. YaHM deflyator indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,5 % va sanoat sohasida – 112,1% qayd etildi.



Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2025- yil yanvar – iyun oylarida – 13,1 % ni (2024- yil yanvar – iyunda – 13,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 4,8 % ni (4,3 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 22,3 % ni (23,2 %) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHM tarkibidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)

2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi 14 670,5 mlrd so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 12 535,8 mlrd so'm). YaHMDagi ulushi 68,9 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

